

“KDB BANK O‘ZBEKISTON” AJ TOMONIDAN BANK HISOBVARAG‘INI YURITISH VA BANK OPERATSIYALARINI AMALGA OSHIRISH SHARTLARI

(“KDB Bank O‘zbekiston” AJ ning bank hisobvarag‘ini yuritish va bank operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha ommaviy oferta shartlari)

1. Umumiy qoidalar

1. “KDB Bank O‘zbekiston” AJ tomonidan bank hisobvarag‘ini yuritish va bank operatsiyalarini amalga oshirish shartlari (keyingi o‘rinlarda “Shartlar” yoki “Ommaviy Oferta” deb ataladi) “KDB Bank O‘zbekiston” AJ Hisobvaraqlar Shartnomasining ajralmas qismi hisoblanadi va “KDB Bank O‘zbekiston” AJ (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb ataladi) tomonidan Bank Hisobvaraqlar Shartnomasini tuzish uchun rasmiy taklif hisoblanadi.

2. Mazkur Shartlar Bank va bank hisobvarag‘ining egasi (keyingi o‘rinlarda “Mijoz” deb ataladi) o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi, bank hisobvarag‘i/hisobvaraqlari (keyingi o‘rinlarda “Hisobvaraqlar” deb ataladi) mavjudligi va bank operatsiyalarining O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq o‘tkazilishini tartibga soladi va Bank Hisobvarag‘i Shartnomasi tuzgan har ikki tomon uchun (keyingi o‘rinlarda “Tomonlar” deb ataladi) ham majburiydir.

3. Shartlar O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq, shu jumladan qonunlar, qonunosti hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa davlat organlarining me‘yoriy hujjatlari (bundan keyingi o‘rinlarda “Qonunchilik” deb ataladi) asosida tuzilgan va ularga muvofiq tartibga solib turiladi.

4. Mijoz tomonidan Bank Hisobvarag‘i Shartnomasining imzolanishi Mijozning mazkur Shartlar va Tariflarni olganligi, tanishib chiqqanligi va ularga roziligini anglatadi.

5. Mijoz tomonidan ommaviy ofertani qabul qilinishi² deb (Mijozning Shartnomani tuzishga roziligi), mijozning tadbirkorlik subyektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning avtomatlashtirilgan tizimidan foydalanib ro‘yxatga olish bo‘yicha choralari va tadbirkorlik subyektlariga Bank hisobvarag‘ini muvaffaqiyatli ro‘yhatdan o‘tkazishi hisoblanadi.

6. Ma‘lum bir bank xizmatlari Bank Hisobvaraqlar Shartnomasi va Shartlar bilan bir qatorda alohida tuzilgan maxsus shartnomalar va maxsus shartlar bilan tartibga solinadi. Nizolar va kelishmovchiliklar kelib chiqqan hollarda, alohida tuzilgan maxsus shartnomalar va maxsus shartlar ustunlikka ega bo‘ladi.

7. “KDB Bank O‘zbekiston” AJ mijoz hisobvarag‘ini yuritish va bank operatsiyalarini amalga oshirish munosabati bilan yuzaga keladigan barcha majburiyatlar va vazifalarini o‘z zimmasiga oladi.

2. Hisobvaraqlar ochish va uni yuritish

1. Bank Mijoz uchun Hisobvaraqlar ochadi:

- barcha zarur hujjatlarni taqdim etib, Bank Hisobvarag‘i Shartnomasini (bundan keyingi o‘rinlarda “Shartnoma” deb ataladi)¹ imzolagandan so‘ng, yoki

- Ommaviy Ofertani² qabul qilishni ro‘yxatdan o‘tkazishni avtomatlashtirilgan tizimga joylashtirish va tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazgandan so‘ng.

2. Bank hisobvarag‘ini ochish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar ro‘yxatini Bank amaldagi Qonunchilik talablaridan kelib chiqqan holda va Bankda o‘rnatilgan tartibni hisobga olib belgilaydi. Qonunchilik yoki Bank ichida o‘rnatilgan tartiblar o‘zgariganda Bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar ro‘yxatiga o‘zgartirishlar kiritishga haqli.

3. Bank Mijozga uning hisobvarag‘idagi debet va kredit aylanmalari haqidagi ma‘lumotni hisobvaraqlardan ko‘chirma ko‘rinishida Mijozning so‘rovnomasiga asosan belgilanadigan davriylikda taqdim etadi. Ko‘chirmalarni berish davriyligi istalgan vaqtda o‘zgarishi mumkin. Ko‘chirma Mijozga qog‘oz yoki elektron ko‘rinishda (Bank va Mijoz o‘rtasida tegishli kelishuv mavjud bo‘lganda) berilishi mumkin. Ko‘chirma ko‘rsatilgan operatsiyalarning amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. Ko‘chirma

¹ Barcha Mijozlar uchun

² Yuridik shaxslar, muassislari O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun

avtomatik tarzda nashr qilinadi va bankning tegishli shaxslari imzosi talab qilinmaydi, lekin shu bilan birga u yoki bu tranzaksiya (bank operatsiyalari) o'tkazilganligini tasdiqlaydi.

4. Mijoz huquqiy maqomi, nomi, manzili o'zgartirish va boshqa ma'lumotlar to'g'risida yozma ravishda Bankni zudlik bilan xabardor qilishi kerak. Har qanday o'zgarish, Bank Mijoz tomonidan yuborilgan yozma xabarnomani olgandan so'nggina yuridik kuchga ega bo'ladi. Bank o'z ixtiyoriga ko'ra Mijozdan istalgan o'zgarishlar haqida yozma ma'lumot berishni talab qilishi mumkin, Mijoz esa shunday o'zgarishlar to'g'risida yozma ma'lumotlarni taqdim etishi shart.

3. Korrespondentsiya

1. Korrespondentsiya o'z ichiga Ko'chirmalar va/yoki boshqa istalgan ma'lumotlarni oladi. Bank Korrespondentsiyalarni abonent qutisiga (Bank va Mijoz o'rtasida tegishli shartnoma mavjud bo'lganda) yoki pochta orqali Mijoz ko'rsatgan manzilga yuboradi. Manzil o'zgartirish Mijoz zudlik bilan belgilangan shaklda Bankni bu haqda xabardor qilishi shart. Bank o'z ma'lumotlar bazasiga tegishli o'zgarish kiritganligini tasdiqlagandan so'ng, bu o'zgarishlar haqiqiy hisoblanadi.

Bank tomonidan yuborilgan xatlar Mijoz ko'rsatgan manzilga yetib bormasligi yoki ushbu manzilda Mijozning yo'qligi sababli qaytarib yuborilsa, Bank Mijoz bilan ko'rsatilgan telefon/faks/elektron pochta va x.k. orqali bog'lanadi. Agar shunda ham Mijoz bilan bog'lanishning iloji bo'lmasa, Bank ko'chirmalarni olti oygacha saqlaydi, shundan keyin ularni yo'q qiladi. Mijoz korrespondentsiyalarni uning manziliga yetib bormasligi bilan bog'liq barcha mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

2. Mijoz Bankdan olingan barcha korrespondentsiyalarni olgan zahoti darhol tekshirib ko'rishi kerak. Agar Mijoz korrespondentsiyalarda noaniqliklarni yoki topshiriqlarning to'liq bajarilmaganligini aniqlasa, bu haqda darhol Bankka xabar qilishi lozim.

3. Hujjatlarni Mijozga yuborilgan kundan boshlab 3 oy mobaynida Mijoz Bankdan olgan korrespondentsiyalarning mazmuniga norozilik bildirmasa, u bu hujjatlarni ma'qulladi deb hisoblanadi.

4. Hisobvarag'ini boshqarish

1. Mijoz hisobvarag'idan Qonunchilik talablariga va mazkur Shartlarga muvofiq holda bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun foydalanadi.

2. Hisobvaraqlarni boshqarish imzo(lar) namunalari qo'yilgan Kartochkada imzosi qo'yilgan shaxs(lar) tomonidan Bankka yozma ko'rsatmalar berish orqali amalga oshiriladi. Hisobvaraqlarni boshqarish bo'yicha ko'rsatmalar berish ushbu turdagi operatsiya uchun qo'llaniladigan belgilangan shakldagi blanklarda bajarilishi shart. Vakolatli shaxs(lar)ning imzo(lar)i Bankka taqdim etilgan imzo(lar) namunasiga mos bo'lishi va vakolatli shaxslar tomonidan shaxsan qo'yilishi kerak.

Davlat ro'yxatidan³ o'tkazishning va tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olishning avtomatlashtirilgan tizimidan foydalanib ochilgan hisobvaraqlarni yuritish uchun imzo kartalarining imzo(lar) qo'yilgan namunalari bilan birga ikki nusxasi va Mijozning hisob-kitob hujjatlarini imzolash vakolatiga ega bo'lgan shaxsning guvohnomasi (passport yoki uning o'rnini bosadigan hujjat) orqali amalga oshirilishi mumkin. Vakolatli shaxs(lar)ning imzo(lar)i Bankka taqdim etilgan imzo namunalari mos kelishi va o'z qo'llari bilan imzolangan bo'lishi kerak.

Hisobvaraqlar bo'yicha ko'rsatmalar berishning boshqa usullari Bank va Mijoz o'rtasida yozma shaklda alohida kelishib olinishi kerak, shundan keyingina bunday ko'rsatmalar Bank tomonidan bajarish uchun qabul qilinadi.

3. Bank quyidagilarni bajarish uchun qabul qilmaydi: noaniq ko'rsatmalar, mijoz tomonidan to'lg'azilmagan yoki imzolangan, amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan ma'lumotlar kiritilmagan, tuzatishlar kiritilgan to'lov hujjatlari, amaldagi qonunchilikka zid bo'lgan operatsiyalarni o'tkazish to'g'risidagi ko'rsatmalar, shuningdek amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa hollarda. Bank bunday ko'rsatmalarni bajarishdan bosh tortganligi munosabati bilan Mijozga yetkazilgan zarar uchun javobgar emas.

4. Ko'rsatmalarni elektron usulda berish Bank va Mijoz munosabatlarini tartibga soluvchi tegishli kelishuv mavjud bo'lganda, elektron tizimdan foydalanilgan hollarda amalga oshiriladi.

5. Bank Hisobvaraqlar Shartnomasi asosida Bank quyidagi faoliyatni amalga oshiradi:

a) Mijozning hisobvaraqlariga kelib tushadigan pul mablag'ini qabul qiladi va bu o'tkazma bilan bog'liq

³ Yuridik shaxslar, muassislari O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun

xarajatlarni chiqarib tashlagan holda hisobvarag'iga o'tkazadi. Mijoz o'z hisobvarag'iga kutilmagan mablag' kelib tushganligi haqida, pul kelib tushgandan keyin 3 kun ichida Bankka xabar berishi shart.

b) Mijozning ko'rsatmasiga muvofiq hisobvaraqdagi qoldiq doirasida to'lovlar va pul o'tkazmalarini amalga oshiradi. Agar hisobvaraqda pul mablag'i yetarli bo'lmasa, Bank Mijozning to'lov hujjatlarini qaytarib berishga haqli. Bank Mijozning to'lov topshiriqnomalarining qisman to'lovini amalga oshirmaydi.

c) Mijozning hisobvarag'i bilan bog'liq boshqa bank operatsiyalari va vazifalarni bajaradi.

d) Mijozning hisobvarag'ida o'tkaziladigan barcha operatsiyalar haqida Mijozni xabardor qiladi.

6. Mijozning hisobvarag'idan pul mablag'larini yechib olish faqat Mijozning roziligi bilan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur Shartlarda ko'zda tutilgan xollarda, shuningdek Mijoz Bankka to'lashi lozim bo'lgan pul mablag'ini undirish maqsadida, hisobvaraqa pul mablag'i noto'g'ri kelib tushganda hisobvaraqni tekshirish uchun mablag'larni yechib olish bundan mustasnodir. Bunda Bank shunday to'lovlar natijasida Mijozga yetkazilgan zarar, ziyon va boshqa yuqotishlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

7. Sud, davlat organlari yoki banklarning kredit bo'yicha muddati o'tgan qarzlarni, hisoblangan foizlarni undirib olish bo'yicha qarorlariga asosan uchinchi tomonning to'lov talabnomalari/inkasso topshiriqnomalari va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa to'lov talabnomalari Bank tomonidan aktseptsiz tartibda bajarish uchun qabul qilinadi. Boshqa to'lov talabnomalari Mijozning roziligiga ko'ra, basharti Mijoz va mahsulot (ish, xizmat) yetkazib beruvchi o'rtasida tuzilgan shartnomada boshqa shartlar nazarda tutilmagan bo'lsa, amalga oshiriladi.

8. Mijoz to'lashi lozim bo'lgan majburiyatlarni yoki talabnomalarni, bunday majburiyatlarga yig'imlar, komission yig'imlar, xizmatlar uchun to'lovlar va harajatlar kiradi, qaysi valyutada to'lash belgilanganidan qat'iy nazar, to'lash uchun hisobvarag'ida yetarlicha mablag' bo'lmasa, Bank qonunchilikda belgilab qo'yilgan tartibda ish yuritadi.

9. Mijoz Bank tomonidan uning tasarrufiga berilgan hujjatlar, blanklar, ma'lumotlarni uzatish vositalari va boshqa hujjatlashtirish va kommunikatsiya vositalariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ladi. Agar Mijoz ularning yo'qolganligini, o'g'irlanganligini yoki suiste'mol etilganligini aniqlasa, bu haqda zudlik bilan yozma ravishda Bankka ma'lum qiladi. Bank mazkur yozma xabarnomani olganligini tasdiqlagunga qadar bu hujjatlar, blanklar, ma'lumotlarni uzatish vositalari va boshqa hujjatlashtirish va kommunikatsiya vositalaridan foydalanganligi uchun moddiy va boshqa javobgarliklar Mijozning zimmasida bo'ladi.

10. Mijoz yoki uning ishonchli vakili Mijozning hisobvarag'idagi pul mablag'lari bo'yicha Mijozning foydalana oladigan balansidan oshmaydigan summa miqdorida topshiriqlar berishi mumkin. "Foydalana oladigan balans" - Mijozning hisobvarag'idagi, operatsiya o'tkaziladigan kunda muzlatib qo'yilishga, talabnomalar bo'yicha o'tkazmalarga va boshqa cheklovlarga taalluqli bo'lmagan erkin pul mablag'idir.

11. Agar xorijiy tashkilotlarning vakolatxonalari, xalqaro tashkilotlar, diplomatik missiyalar (nerezidentlar)ning akkreditatsiyasini tasdiqlovchi hujjatning muddati tugagan bo'lsa, bu hujjatning muddati uzaytirilganligi to'g'risidagi tegishli hujjat taqdim etilmagunga qadar Bank qonunchilikda belgilab quyilgan tartibda va ichki yo'riqnomalardan kelib chiqqan xolda ish yuritadi.

12. Agar Bank Mijozning Hisobvarag'i bo'yicha ko'chirmalar, tasdiqnomalar va boshqa ma'lumotlar berishda xato qilganligini aniqlasa, bu haqda zudlik bilan Mijozni xabardor qilishi, noto'g'ri o'tkazilgan hisob-kitoblarni tezlik bilan tuzatishi shart. Bank Mijozning oldindan roziligini olmasdan turib, uning hisobvarag'ini kreditlash yoki debetlash orqali hisob-kitoblarga tuzatish kiritishga haqli. Bank bundan tuzatishlar natijasida yuzaga kelgan zararlar uchun javobgar bo'lmaydi, faqat bunday noto'g'ri hisob-kitoblar Bank tomonidan e'tiborsiz munosabatda bo'linganligi natijasida yuzaga kelgan hollar bundan mustasno.

13. Agar Mijozning tegishli hisob raqamlarida Bank Tarifida o'rnatilgan tartibda yetarlicha minimal mablag' mavjud bo'lmasa, Bank Mijozning topshiriqnomalarini (shuningdek to'lov topshiriqnomalarini) qabul qilmaslik, hamda Bankning hisobvarag'ini yuritish va Bank operatsiyalarini amalga oshirish shartlarining 13.2 punktida kursatib quyilgan shartlarga asosan boshqa huquqlarga ega.

5. Kassa xizmatlarini ko'rsatish

1. Naqd pul bilan bo'ladigan operatsiyalar Bank tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi va Bank tomonidan turli valyutadagi naqd pulni qabul qilish, qayta sanash, saqlash, hisobvaraqa o'tkazish va naqd pul berishni o'z ichiga oladi. Yuqorida sanab o'tilgan operatsiyalar Bank tomonidan belgilangan soatlarda amalga oshiriladi.

2. Bank Mijoz tomonidan topshirilgan pulni qabul qilib olib, qaytadan sanab ko'rib, o'rab bo'lgach,

uning hisobvarag'iga o'tkazadi.

3. Naqd pul berish Hisobvaraqdagi pul qoldig'i doirasida amalga oshiriladi. Mijoz ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar uchun naqd pul olishdan kamida 48 soat oldin Bankni bu haqda xabardor qilishi kerak.

6. Konvertatsiya

1. Bank konvertatsiyaning quyidagi turlarini amalga oshiradi: O'zbekiston Respublikasi hududida to'lovlarni amalga oshirish uchun erkin valyuta mablag'larini o'zbek so'miga konvertatsiya qilish va import bitimlar va kredit bitimlari bo'yicha qarzdorliklarni to'lash uchun o'zbek so'midagi erkin mablag'larni xorijiy valyutaga ayirboshlash.

2. Erkin valyuta mablag'larini o'zbek so'miga konvertatsiya qilish uchun Mijozning tegishli tartibda to'ldirgan arizasi Mijoz va Bank orasidagi xorijiy valyuta oldi-sotdi shartnomasi asosida taqdim etiladi. Import bitimlar, dividend to'lovlari hamda foyda repatriatsiyasi bo'yicha to'lovlarni o'tkazish Mijoz va Bank o'rtasidagi oldi-sotdi shartnomasi asosida o'zbek so'midagi erkin mablag'larni xorijiy valyutaga ayirboshlash orqali amalga oshiriladi. Bunda, taqdim etilayotgan hujjatlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi tomonidan belgilanadi.

3. Mijoz konvertatsiya o'tkazishni va konvertatsiya natijasida olingan valyuta mablag'laridan belgilangan maqsadga muvofiq foydalanishni tartibga soluvchi Qonunchilikka rioya etishga majbur.

7. Abonent qutisi

1. Bank Mijozga foydalanish uchun Abonent qutisi ajratadi. Mijozga yuboriladigan korrespondentsiyalar mazkur qutiga yetkazib beriladi. Mijoz Abonent qutisidan Ish kunlarida (Bank muntazam bank faoliyati olib borishi uchun ochiq bo'lgan har bir kun, keyingi o'rinlarda ("Ish kuni" deb ataladi) foydalanishi mumkin.

2. Bank mijozga Abonent qutisining kalitini depozit kiritganda topshiradi. Mazkur depozit Mijozga u Abonent qutisining kalitini Bankka qaytarib topshirganda to'lab beriladi. Kalitning dublikatlari Bankda saqlanadi. Mijoz kalitni boshqa shaxsga bermasligi kerak. Abonent qutisining kaliti yo'qotib qo'yilganda, Mijoz zudlik bilan bu haqda Bankka xabar qiladi. Bank Mijozning yozma rasmiy so'roviga binoan va uning hisobidan yangi kalitni topshiradi.

3. Mijoz Abonent qutisidan faqatgina belgilangan maqsadga muvofiq foydalanishni o'z zimmasiga oladi, unda Abonent qutisi ajratish uchun sabab bo'lgan maqsadga to'g'ri kelmaydigan biror-bir hujjat yoki buyumni saqlamaydi.

4. Abonent qutisining ijara haqi har oyda Tariflarga muvofiq to'lanadi.

5. Abonent qutisidan foydalanish uchun javobgarlik Mijozning zimmasida bo'ladi. Bank tomonidan Abonent qutisiga yetkazib berilgan har qanday pochta Bankning mijozga yetqazilgan xabarnomasi hisoblanadi va Mijozning ofisiga yoki yashash joyiga yetkazib berilgan bilan bir xil baholanadi. Bank va/yoki uning xodimlari Abonent qutisidan biror bir hujjat yoki boshqa buyumlar yo'qolganligi yoxud o'g'irlanganligi uchun javobgar bo'lmaydilar.

8. Aloqa vositalaridan foydalanish

1. Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan maxsus shartnoma asosida Bank Mijozning aloqa vositalari orqali berilgan, uning Hisobvarag'ini boshqarishga taalluqli ko'rsatmalarini qabul qiladi.

2. Mijoz uning operativ (ya'ni elektron yoki faksimil) aloqa vositalari to'g'risida Bankning tasdiqnomasini olishi shart, chunki ulardan foydalangan holda Bank Mijozning yo'riqnomalarini qabul qiladi. Bunday tasdiqnoma bo'lmagan holda, Bank o'z hoxishiga ko'ra bunday operativ aloqa vositalarini aniqlashga haqli va Mijoz Bankning tanloviga rozilik beradi.

3. Bank Mijoz nomidan kelib tushgan har bir ko'rsatma (keyingi o'rinlarda – "Xabar")ni to'liq va haqiqiy deb qabul qiladi, barcha to'lov va ko'rsatmalarni Xabarda mavjud bo'lgan Mijozning topshiriqlariga asosan Mijoz tomonidan hech qanday qo'shimcha vakolat va/yoki tasdiqsiz bajaradi. Mijoz vakolati bo'lmagan shaxslar tomonidan operativ aloqa vositalaridan foydalanilganda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfni o'z zimmasiga oladi. Bank Mijozdan olingan Xabarning haqiqiyliги va ishonchligi uchun javobgar emas. Mijoz nomidan yuborilgan Xabarning haqiqiyliги va ishonchligiga shubha tug'ilsa, Bank Xabardagi

ko'rsatmani bajaraslik huquqiga ega.

4. Bank olingan Xabardagi ko'rsatmani faqatgina u Hisobvarag'ida yo'l qo'yib bo'lmaydigan mahfiy qoldiq paydo bo'lishiga olib kelmaydigan hollardagina bajaradi.

9. Hisobvaraq bo'yicha foizlar

Hisobvaraq(lar) bo'yicha foizlar hisoblash Bank bilan Mijoz o'rtasida tuziladigan alohida kelishuvning predmeti hisoblanadi. Bank tomonidan foizlar mahalliy qonunchilikda nazarda tutilgan bazaviy hisob-kitoblardan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

10. Bank tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun haq to'lash

1. Mijoz Bank xizmatlari uchun haq to'lanishini kafolatlaydi, shuningdek Bankning Mijoz ko'rsatmalarini bajarish bilan bog'liq barcha xarajatlarini ushbu Shartlarning ajralmas qismi hisoblangan va Bank tomonidan bir tomonlama o'zgartirilishi mumkin bo'lgan Tariflarga muvofiq Bankning xizmatlari to'lanadigan valyutada, miqdorlarda va shartlarda qoplaydi, basharti Bank va Mijoz o'rtasida boshqa shartlar yozma shaklda kelishib olinmagan bo'lsa.

2. Agar bank operatsiyasi o'tkazilayotganda Mijozda bank komission haqlarini to'lash uchun mablag' yetarli bo'lmasa, Bank Mijozga xizmat ko'rsatishni rad etishga haqli.

3. Bank ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanishi lozim bo'lgan komission summani Mijozning Hisobvarag'idan to'g'ridan-to'g'ri yechib olishga haqli.

4. Mijoz – yuridik shaxsning xodimi – jismoniy shaxsning lavozimidan ozod etilgani va/yoki xodimlar ro'yxatidan chiqarganligi to'g'risidagi xabarni olgach, Bank bunday xodimning xisobvarag'idagi debet qoldig'ini qoplash maqsadida Mijoz – yuridik shaxsning hisobvarag'ini debetlash xuquqiga ega.

5. Bank Hisobvarag'i bo'yicha ko'chirmaga komission to'lovlar to'g'risidagi tasdiqnomani kiritishi va agar bu ma'lumotlarni Bankning tegishli xizmatlariga taalluqli hujjatlaridan olishning iloji bo'lmasa qo'shimcha yozma hisobotni taqdim etishi shart.

11. Uchinchi tomonlarning xizmati

1. Bank mijozning topshirig'ini bajarish, Mijoz bilan tuzilgan shartnoma talablarini bajarishda, shuningdek Tomonlarning aktivlari va hujjatlarini Bank nomidan uchinchi tomonda saqlash uchun joylashtirishda uchinchi tomonlarning xizmatidan foydalanish huquqiga ega.

2. Agar Bank uchinchi tomonni tanlashda ehtiyotkorlik qilganligini isbotlay olsa, uchinchi tomonning kamchiligi uchun javobgar bo'lmaydi.

12. Ta'minot

1. Mijozning Bank oldidagi majburiyatlarini bajarish va Bank tomonidan Mijozning topshirig'iga ko'ra ma'lum bir majburiyatlarni bajarish maqsadida Mijoz Bankka uning talabiga binoan adekvat ta'minotni (keyingi o'rinlarda "Ta'minot") taqdim etadi. Agar Ta'minot noadekvat bo'lib qolsa, Mijoz uni to'ldiradi yoki Bankka ma'qul usulda uni almashtiradi.

2. Bank Mijozning Bank oldidagi majburiyatlarini bajarishi yoki Mijozning topshirig'iga ko'ra Bankning majburiyatlari bajarilishi muddati yetib kelmagunga qadar va u to'lanishi lozim bo'lguncha Ta'minotdan foydalanish huquqiga ega emas. Bank Mijozni majburiyatlarning bajarilmasligi to'g'risida ogohlantiradi, agar majburiyatlarni bajara olmaslikni bartaraf etish mumkin bo'lmasa, Ta'minotdan foydalanishga kirishgunga qadar uni bartaraf etish uchun muddat belgilaydi. Ta'minotdan foydalanish huquqining bir qismi sifatida Bank uchinchi shaxslardan Ta'minotning bir qismi sifatida Bankka qo'yilgan istalgan debitor qarzdorlik yoki talabnomani undirish vakolatiga ega. Bank Ta'minotdan olingan tushumdan Mijozning majburiyatlari va unga taalluqli barcha xarajatlar miqdorida, shu jumladan Ta'minotga qo'yilgan mol-mulkni ta'qiqlab qo'yish va sotishda yuzaga kelgan Bankning xarajatlari va chiqimlari cheklovlarsiz o'zida qoldirish huquqiga ega.

13. Ichki nazorat

Ta'sisчилari O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorlarga bank hisobvarag'ini masofadan turib ochishda, davlat ro'yxatidan o'tkazilayotganda va ro'yxatga oluvchi organ (Davlat Xizmatlari Markazlari⁴) tomonidan Mijozni lozim darajada tekshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rsatsa, Bank Mijoz bilan ish munosabatlariga kirishish to'g'risidagi qarorni o'z tavakkalchiliklaridan kelib chiqqan holda, mustaqil ravishda qabul qiladi. Shuningdek, Mijozni lozim darajada tekshirish bo'yicha chora-tadbirlar Bank tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Bank tomonidan Mijozning hisobvarag'ini yuritish vaqtida, Mijoz tomonidan shubhali operatsiyalar o'tgazanligi aniqlangan taqdirda va Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari asoslangan holda, Mijoz o'tkazgan operatsiyalarining qonuniyligi to'g'risida yozma tushuntirish berguniga qadar, Bank bir tomonlama Shartnomani bekor qilishi, hisobvaraqq yuritishni vaqtincha to'xtatib turishi yoki rad etishi mumkin.

14. Hisobvaraqqni yopish

1. Mijoz istalgan vaqtda Shartnomani bekor qilish va Hisobvaraqqni yopish huquqiga ega, bunda u Bankni uch kun (3 ish kuni) oldin yozma ravishda xabardor qilishi kerak. Bunday xabarnomaning muddatidan kelib chiqqan holda Mijozning barcha to'lov majburiyatlarining muddati tugaydi va ular to'lanishi lozim bo'ladi, Mijoz esa mazkur Shartlarning 13.3 – bandiga muvofiq o'z majburiyatlari uchun javobgarlikka ega bo'lib qolaveradi.

2. Bank Hisobvaraqq Shartnomasi qonunda belgilangan tartiblarga asoslanib Bankning talabi bilan quyidagi holatlarda bekor qilinishi mumkin:

- agar Mijozning Bankdagi ixtiyoriy Hisobvarag'i kredit qoldig'i Bank Tarifida o'rnatilgan minimal miqdorga javob bermasa va Mijoz, Bank bu xaqda Mijozni xabardor qilganidan so'ng, bir oy vaqt davomida, bank hisobvaraqlarini to'ldirish bo'yicha hech qanday chora ko'rmasa.

- agar Mijoz oxirgi 12 oy davomida hisobvaqq bo'yicha hech qanday tranzaksiyalar o'tkazmagan bo'lsa.

Yuqoridagi holatlar Mijozlar – yuridik shaxslarning xodimlari – jismoniy shaxslar individual (shaxsiy) hisobvaraqlarini istisno qilgan holda Bank tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan barcha Mijozlarga qo'llaniladi. Shuning uchun u (xodim) Mijoz – yuridik shaxsdan bo'shasa va/yoki shunday jismoniy shaxs Mijoz – yuridik shaxs xodimlari ro'yxatidan o'chirilsa, Bank bir tomonlama jismoniy shaxs – xodim bilan tuzilgan Hisobvaraqq Shartnomasini bekor qiladi yoki har bir holatga alohida yondashgan holda o'z xohishiga ko'ra boshqacha yo'l tutish huquqini o'zida qoldiradi. Mijoz – yuridik shaxs o'z xodimi – jismoniy shaxsning lavozimidan ozod etilgani va/yoki xodimlar ro'yxatidan chiqarilganligi to'g'risida Bankni o'z vaqtida xabardor qilishi kerak.

Bank Hisobvaraqq Shartnomasini bekor qilish Mijoz hisobvarag'ini yopishga asos bo'ladi.

3. Bank Hisobvaraqq Shartnomasi istalgan asoslarda bekor qilingach Mijoz va Bank Shartnomadan kelib chiqadigan, lekin u bekor qilingunga qadar oxirigacha bajarilmagan barcha topshiriqlar va majburiyatlarni bajarishga majburdirlar. Mijoz Bankning unga qilishi mumkin bo'lgan barcha da'volarini hisobga olishiga rozi bo'ladi. Agar ma'lum bir majburiyatlarning o'z kuchida qolganligi natijasida (masalan, bank kafolat xati, akkreditiv ochilganligi va x.k.) Bankning javobgarligini to'xtatishning iloji bo'lmasa, Mijoz Bankning talabiga ko'ra uning Bank oldidagi majburiyatlarini bajarishi uchun tegishli ta'minotni taqdim etishga majbur.

4. Mijoz va Bank o'rtasidagi barcha majburiyatlar bajarilgandan so'ng uch ish kuni mobaynida Mijozning hisobvarag'idagi pul mablag'i qoldig'i Mijozning yozma ko'rsatmasiga muvofiq Bankdagi boshqa hisobvarag'iga yoki boshqa bankdagi hisobvaraqqga o'tkaziladi, yoxud Qonunchilikka zid bo'lmasa naqd pulda Mijozga qaytarib beriladi.

⁴ Davlat ro'yxatidan o'tkazishning va tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olishning avtomatlashtirilgan tizimi

15. Ma'lumotlarni taqdim etish

1. Bank mahalliy va xorijiy banklarga mazkur banklarning talabi bilan o'z mijozlari to'g'risidagi umumiy ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin. Bundan tashqari, Bank konfidentsial asosda o'zining tashqi konsultantlariga va ishonchli shaxslarga o'z mijozlari haqidagi umumiy ma'lumotlarni berish huquqiga ega. Bank biror-bir uchinchi tomonlarga Mijoz, Hisobvarag'i va uning iqtisodiy faoliyati to'g'risidagi biror-bir ma'lumotni berishga haqqi yo'q. Bu O'zbekiston Qonunchiligiga muvofiq talab etiladigan ma'lumotlarni oshkor etishga taalluqli emas.

“KDB Bank O'zbekiston” AJ vaqti-vaqti bilan KDB (Koreya Respublikasi) yoki uning sho'ba banklari va filiallariga mijoz to'g'risidagi ma'lum bir ma'lumotlarni va mijoz bilan KDB (Koreya Respublikasi) yoki uning butun dunyodagi sho'ba banklari va filiallari o'rtasidagi tranzaksiyalari to'g'risida ma'lumotlarni tranzaksiyalarni o'tkazish maqsadida beradi; yoki “KDB Bank O'zbekiston” AJ tomonidan Mijozga ko'rsatiladigan xizmatlarga bevosita bog'liq boshqa maqsadlar uchun berib turishi mumkin. Bundan tashqari yuqorida aytilganlar qonunchilik bilan ruxsat etilgan ma'lumotlarni fosh etish xolatlariga ham taalluqlidir.

Ma'lumotlarni berish yoki axborotlarni oshkor qilishga rozilik berish, shartnomani bekor qilinishi yoki mijozga xizmat ko'rsatish to'xtatilganiga qaramasdan o'z kuchida turishi mumkin, bu mijoz yozma shaklda ariza bermaguncha davom etadi.

2. Ushbu Shartlar orqali Mijoz, jamg'arma egasi, karta egasi FSC, FSS of Korea, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki singari regulyatorlar va mahalliy tartibga solib turuvchi organlar tomonidan tartibga solib turiluvchi, o'zining bo'linmalari va qaram kompaniyalari/banklariga ega KDB tarmog'ining bir qismi bo'lgan Bank uni jinoiy faoliyatga, pul mablag'larini legallashtirish bo'yicha sxemalarga tortish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadni legalizatsiya qilish, terrorizmni moliyalashtirish, firibgarlik, korrupsiya va x.k. hollarini bartaraf etish ustida faol ish olib borishini tan oladi va bunga rozilik bildiradi. Bank siyosati/standartlari bankning obro'sini saqlash va himoya qilishga va jamoat hamda mijozlar/jamg'arma egalari/kartochka egalarining Bankka bo'lgan ishonchiga putur etmasligiga qaratilgan. Shu sababli Bank o'z xoxishiga ko'ra Bank tomonidan bajariladigan har qanday to'lovlarga nisbatan o'z talablarini o'rnatadi. Biror-bir to'lovning mazkur belgilangan talablarga muvofiq emasligi aniqlangan vaziyatlarda Bank to'lov tabiatini tushuntirib beruvchi qo'shimcha hujjatlar talab qilishi va bu to'lovlarni o'tkazishdan bosh tortishi mumkin.

3. Mijoz/jamg'arma egasi/kartochka egasi mijoz to'g'risida va/yoki uning to'lovlari/to'lov hujjatlari to'g'risidagi istalgan ma'lumotni taqdim etishga shak-shubhasiz o'z roziligini beradi, basharti bu KDB tarmog'i ichida va undan tashqarida vaqti-vaqti bilan talab etilsa va Bankning bunday to'lovlarning odatdan tashqari va shubhali bo'lishi mumkinligidan xavfsirashi uchun real asoslar bo'lsa va jinoiy faoliyatdan olingan daromadni legalizatsiya qilish, terrorizmni moliyalashtirish, firibgarlik, korrupsiya va x.k. xavfli faoliyatlarning oldini olish maqsadida amalga oshirilayotgan bo'lsa.

16. Fors-major

Tomonlar ularning nazoratidan tashqarida bo'lgan Fors Major vaziyatlari natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lmaydilar. Fors major holatlariga jumladan, lekin chegaralanmagan xolda, suv toshqinlari, yong'in, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar, shuningdek urush, harbiy harakatlar, hukumat farmonlari va qarorlari bilan faoliyatni amalga oshirish man etilishi, O'zbekiston banklararo elektron tizimining ishdan chiqishi, nosozligi tufayli to'lov o'tkazish mumkin bo'lmagan holatlar va tomonlarning nazoratidan tashqarida bo'lgan boshqa vaziyatlar kiradi.

17. Yurisdiksiya

1. Mazkur Shartlar va munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi bilan tartibga solib turiladi.
2. Bank hisobvarag'i Shartnomasi va mazkur Shartlar bilan tartibga solib turiladigan munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar Tomonlar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal qilinadi.
3. Agar tomonlar shunday nizo to'g'risida yozma xabarnoma olingandan so'ng 14 (o'n to'rt) kalendar kuni mobaynida nizoni hal qila olmasalar, bunday nizo O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ko'rib chiqish uchun sudga beriladi.

18. Boshqa qoidalar

1. Shartnomaga yoki mazkur Shartlarga muvofiq talab etiladigan barcha xabarnomalar yozma ravishda O'zbek, Rus yoki Ingliz tilida amalga oshiriladi.

Bankka xabar berish, Mijoz tomonidan quyidagi usullardan biri bilan amalga oshirilishi mumkin:

- 1) imzosi ostida qabul qilinganligini tasdiqlash orqali shaxsiy yetkazib berish;
- 2) pochta xizmati orqali yetkazib berish;
- 3) elektron pochta orqali yoki uyali aloqa orqali (SMS xabarlar xizmati orqali), agar Bank va Mijoz o'rtasida alohida kelishuv mavjud bo'lsa.

Mijozga xabar berish, Bank tomonidan quyidagi usullardan biri bilan amalga oshirilishi mumkin:

- 1) Bankning rasmiy Internet sahifasida (www.kdb.uz), Bank binosida ("Ma'lumotlar" taxtasida) va Internet Banking tizimida ("Yangiliklar" bo'limida) joylashtirish;
- 2) electron pochta orqali yoki uyali aloqa orqali (SMS xabarlar xizmati orqali), agar Bank va Mijoz o'rtasida alohida kelishuv mavjud bo'lsa;
- 3) Mijozning Bankdagi ijaraga olingan abonent qutisiga joylashtirish orqali, agar Bank va Mijoz o'rtasida alohida kelishuv mavjud bo'lsa;
- 4) imzosi ostida qabul qilinganligini tasdiqlash orqali shaxsiy yetkazib berish;
- 5) pochta xizmati orqali yetkazib berish.

Ushbu bo'limga muvofiq amalga oshirilgan barcha xabar berishlar qabul qilingan hisoblanadi:

- a) Bankning rasmiy Internet sahifasida, Bank binosida va Internet Banking tizimida – joylashtirilgan kunida;
- b) electron pochta orqali yoki SMS xabarlar xizmati orqali – yuborilgan kunida;
- c) shaxsiy yetkazib berish orqali yoki pochta xizmati orqali – qabul qilingan kunida.

Xabarnoma Bank va Mijozning shartnomada ko'rsatilgan manziliga yuboriladi. Agar Bank yoki Mijoz o'z manzilini, faks raqamini yoki telefon raqamini o'zgartirsa, darhol bir-birlarini xabardor qiladi, lekin har qanday holatda o'zgartirish kunidan 7 (yetti) kalendar kunidan kechiktirmagan holda xabardor qilishi zarur.

2. Agar Bank Mijozning buyrug'i bilan unga yoki uchinchi tomonga pul, qimmatbaho qog'ozlar, cheklar, akkreditivlar va boshqa hujjatlarni yuborsa, agar boshqa shartlar yozma holda kelishib olinmagan bo'lsa, buning uchun javobgarlik mijozning zimmasida bo'ladi.

3. Mijoz va uchinchi tomonlar o'rtasida kelib chiqqan nizolar biror-bir protsessual hatti-harakatlar munosabati bilan sudda yoki tinch yo'l bilan hal qilinishi natijasida Bank tomonidan qilinadigan barcha xarajatlar Mijoz tomonidan to'lanadi. Bundan tashqari, Bankning Mijoz bilan munosabatlaridagi Tariflarda aniq ko'rsatilmagan barcha chiqimlar va xarajatlar Mijozga hisob-faktura orqali taqdim etiladi va Mijoz bunday hisob-fakturalar bo'yicha to'lovlarni kechiktirmasdan amalga oshiradi.

4. Bank vaqti-vaqti bilan o'z ixtiyori bo'yicha mazkur Shartlarga o'zgartirishlar, modifikatsiyalar va qo'shimchalar kiritish huquqiga ega. Bank bunday o'zgartirishlar, modifikatsiyalar va qo'shimchalar haqida Mijozni o'z vaqtida xabardor qiladi. Ushbu Shartlar O'zbek, Rus va Ingliz tillarida Bank tomonidan yuqori imkoniyat talab darajasida turli tillardagi nomuvofiqliklarning oldini olishini nazarda tutib tuzilgan. Ular orasida nomuvofiqlik yuzaga kelsa Ingliz tilidagisi hal qiluvchi hisoblanadi.